

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI HUZURIDAGI TALABA VA O'QUVCHILARNING
IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH MARKAZI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA
QILISH AKADEMIYASI
O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI
RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR KENGASHI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI HUZURIDAGI
O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI BO'YICHA
MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODIK MARKAZ**

“SIFATLI TA'LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI”

**MAVZUSIDAGI II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
ANJUMAN TO'PLAMI**

2024-yil 10-may

“Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori” mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy anjuman to'plami // Toshkent, 2024-yil 10-may. – 1042 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-avgustdagi “Yoshlarni ilm-fan sohasiga jalb etish va ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4433-sonli Qarori hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi “2024-yil qo'shimcha o'tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar to'g'risida”gi 76-son buyrug'ida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash hamda 2024-yil “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili” munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzurdagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, Respublika Yosh olimlar Kengashi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz hamkorligida 2024-yil 10-may kuni o'tkaziladigan “Sifatli ta'lim – taraqqiyot poydevori” mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy anjumaniga taklif etadi.

Tahrir hay'ati:

- | | |
|-----------------------------|----------------------------------------------------------------------|
| Mansur Aytbayev | – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; |
| Jamshid Yusubov | – siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; |
| Kamoliddin Jabborov | – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; |
| Rasul Ro'zmetov | – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; |
| Serobjon Yuldashev | – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; |
| Baxtiyor Mamasoliyev | – fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; |
| Surojbek Sultonov | – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; |
| Jaloliddin Yusubov | – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; |
| Azamat Amirov | – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; |
| Umid Menglikulov | – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); |
| Abdulla Ibodullayev | – katta o'qituvchi; |
| Bekzod Ernazarov | – katta o'qituvchi; |
| Akmal Raximjonov | – katta o'qituvchi; |
| Davron Melikuziyev | – tadqiqotchi. |

Tashkiliy qo'mita kotibi:

- | | |
|----------------------------|---------------------------------------------|
| Ulug'bek To'xtayev | – O'zbekiston Milliy universiteti xodimi; |
| Javohir Baxtiyorov | – O'zbekiston Milliy universiteti talabasi; |
| Gulnoza Esonaliyeva | – O'zbekiston Milliy universiteti talabasi; |
| Feruz Mustafoyeva | – O'zbekiston Milliy universiteti talabasi. |

Maqolalarning to'g'ri va aniqligiga mualliflar mas'uldir.

5. <https://savodxon.uz/izoh>
6. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/navoiy-ruboiylar.html>
7. Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING "BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI" ("THE TALES OF BEEDLE THE BARD") ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLARI. In МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ: "СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II" (Vol.2, No. 18.03, pp. 554-560). <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>
8. Мусаев Кудрат. Таржима назарияси асослари: Дарслик. Т.: Узбекистан Республикаси ФА«Фан» нашриёти, 2005.-4б

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI FANINI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI

*Ochilova Mexriniso Razokovna,
BuxDU, Fakultetlararo chet tillar kafedrasida dotsenti, PhD*

KIRISH. Keyingi yillarda hukumatimiz tomonidan maktab ta'lim tizimiga juda katta e'tibor berilmoqda. Muhtasham maktab binolari, zamonaviy texnik vositalar, rang-barang darsliklar va qo'llanmalar yuksak e'tibor mahsuli hisoblanadi. Bulardan tashqari, maktab o'quvchilarining 1-sinfdan oq chet tillarini o'rganishlari alohida qonun bilan va Davlat Ta'lim Standardlari bilan belgilab qo'yilganligi maktab ta'limi qanchalar e'tiborda ekanligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimiz rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o'rin olishi uchun, yangicha fikrlaydigan, chet tillarini mukammal biladigan, mehnatga yangicha munosabat bilan qaraydigan yoshlarni tarbiyalash, milliy va ma'naviy qadriyatlarimiz ruhida yetuk kadrlar tayyorlash bugunning dolzarb masalasi hisoblanadi. 2012 yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1875-sonli qaror boshlang'ich ta'limda katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Oradan biroz vaqt o'tib, 2013 yil 8-mayda "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 124-sonli qarori ishlab chiqildi. Ushbu qarorlardan so'ng, 2013-2014 o'quv yilidan boshlab, respublikamizdagi barcha umumta'lim maktablarida 1-sinfdan boshlab, chet tili darslari dars jadvaliga kiritildi. 1-sinfda asosan, og'zaki nutqni rivojlantirish, 2-sinfdan boshlab esa, yozish va o'qish ko'nikmalari ham bosqichma –bosqich shakllantirilishi belgilab qo'yildi.

Taraqqiy etayotgan jamiyatda samarali natijalarga erishish uchun yosh avlodga ta'lim berishda boshlang'ich davr muhim hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda beriladigan ta'lim o'quvchilarning har tomonlama kamol topishida, yozma va og'zaki savodxonligini shakllantirishda, nutq o'stirishda ta'limning asosiy poydevori

hisoblanadi. Bundan tashqari, katta yoshli insonlarga nisbatan, bolalar tilni juda tez va oson o'zlashtirishi, eshitgan so'z yoki gapni takrorlashi, taqlid qilishi va eslab qolish xususiyati kuchli ekanligi ilmiy jihatdan ham isbotlangan.

MUHOKAMA

Fransuz yozuvchisi va adabiy tanqidchisi Anatol Frans “ Muallimlik san'ati o'quvchilar qalbida qiziqish uyg'otish, so'ng bu talabni qondirishdir” degan edi. Ushbu fikrga ko'ra, hali o'yin va o'qish orasida turgan, asosan tushunib emas, mexanik tarzda yodlaydigan 6-7 yoshdagi bolalarni chet tili fanlariga qiziqtirish biz pedagoglarning oldimizda turgan eng dolzarb vazifamiz hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda bola tasavvurida fanlarga qiziqish uyg'otish uchun zamonaviy va samarali innovatsion metodlar qo'l keladi. Bugungi kunda zamonaviy darslarning asosiy sharti o'quvchilar zerikmasligi va ularni mustaqil o'qib – o'rganishga, fikrlashga undaydigan ta'limiy o'yinlardan o'z o'rnida unumli foydalanishdir. Bu o'yinlar orqali o'quvchilarning chet tiliga bo'lgan qiziqishlari, faolligi ortadi va ijodiy imkoniyatlari ro'yobga chiqadi.

Ingliz tili darslarini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish mumkin:

Multfilmlar- eng avvalo ularga har doim sevib tomosha qilishgan multfilmlarini ingliz tilida ko'rishsa, ulardagi qahramonlarning harakatlaridan, so'zlaridan tushunishga va takrorlashga harakat qilishadi. Misol uchun, Robin Hood, Aladdin, Gogo.

Qiziqarli va rang-barang qo'shiqlar, videolar- bu ham yosh til o'rganuvchilarning diqqatlarini jamlashga, ularni qiziqtirishga va birgalikga kuylashga, undagi harakat va raqslarni ham bajarishga o'rgatadi. Chunki, til eshitgan narsasini takrorlashi ilmiy jihatdan isbotlangan. Misol uchun, “ 1,2,3,4,5 Jump!”, “A,B,C song”, “Rain,rain go away!” –qo'shiqlari eng samarali qo'shiqlardir.

She'rlar va dialoglar- bu metod ham og'zaki nutqni tez va samarali o'stirishga yordam beribgina qolmay, ular orasida tezkorlik va raqobat muhitini ham shakllantiradi. Bunda Grammatik ma'lumotlar, birikmalar juda samarali usulda yosh til o'rganuvchilarga o'rgatilib boriladi. Misol uchun: This-that, I-he-she-we-you-they, am-is-are.

Rasmlar va haqiqiy predmetlar- bu yosh til o'rganuvchilar uchun ko'rish orqali eslab qolish, rasm va haqiqiy predmetlar orasidagi farqni ham topib olishlariga yordam beradi. Misol uchun, red apple-green apple, big ball- small ball, on the desk-under the chair. Bunda “What is missing?” –metodidan foydalanib rasmlar o'rnini o'zgartirish yoki olib qo'yish orqali (bu vaqtda ularga sleep-uxla, wake up-uyg'on komandasini berishimiz kerak bo'ladi) ham o'tilgan mavzu xotirada mustahkamlanadi.

Sezgi a'zolari orqali- bunda o'tilayotgan mavzuga doir so'zlar, predmetlar ushlab, hidlab, hattoki yeb yoki ichib ko'rib aytiladi. O'quvchilar aytilgan so'zlarni aytib, eshitib, takrorlab eslab qolishadi. Bu metod meva, sabzavotlar, oziq-ovqatlar, sog'lom va nosog'lom ovqatlanish kabi mavzularda yaxshi samara beradi.

Tez aytishlar, maqol va topishmoqlar orqali- bunda tez aytish 1-2-sinflarda, 3-4-sinfdan boshlab esa topishmoqlar va maqollardan foydalansak bo'ladi. Tez aytishlar tezkorlikni, to'g'ri talaffuzni, topishmoqlar esa mantiqiy fikrlashni, maqollar esa tarjima qila olishga ham o'rgatadi.

Ijodiy o'yinlar- bunda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni ko'rgazmali qurollarga tayangan holda bajarib, o'z javoblarini asoslaydilar. Bunda o'quvchilar rasm,jadval,plakat, buklet chizishlari, yoki plastilindan ,qog'ozdan nimadir yasashlari mumkin. Bunda tortinchoq va uyatchan o'quvchilar ham faol ishtirok etishadi. Misol uchun, Pictionary-metodi.

Harakatli o'yinlar- bunda o'quvchilar sinf bo'ylab erkin harakatlanishi(hot and cold, find and touch, last man standing o'yinlari), o'qituvchi tomonidan berilgan buyruqqa asosan harakatlanishi (Simon says), yoki berilgan vazifani imo-ishoralar(Pantomime) yordamida ham ko'rsatib berishi mumkin. Bu o'yinlarda darsga qiziqmaydigan, sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar ham juda faol ishtirok etishadi.

Xotira o'yinlar- bunda rasmlar, so'zlar,harakatlar qayta –qayta takrorlanib eslab qolinadi. Ko'pincha, kichik koptokchani o'quvchilar bir-birlariga uloqtirish orqali o'ynashadi. Eng ko'p dars mashg'ulotlariga Chain Drill (zanjir) metodi ishlatiladi.

NATIJA

Bir so'z bilan aytganda, ingliz tili darslarini qiziqarli,harakatli interfaol metodlar orqali tashkil etib, yosh til o'rganuvchi o'quvchilarni ingliz tili faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish kerak deb hisoblayman. Darsdagi metodlar orqali ular o'rgangan ma'lumotlarini hamisha eslab qolishadi. Harakatlar orqali fer'llarni, zamonlarni, sezgi organlari orqali oziq-ovqatlarni va hokazo.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, shiddat bilan rivojlanayotgan davrda chet tilini mukammal biladigan yetuk kadrlar yurtimiz kelajagi uchun juda ham zarur. Ular chet tillarini dars jadvalidagi majburiy fan sifatida emas, qiziqarli innovatsion metodlar orqali o'ranib borishlari kerak. Zero, yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqshdir. Maktab deb atalmish muqaddas dargohdan ingliz tili faniga qiziqadigan,chet tillarini mukammal biladigan, kelajakda yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shadigan salohiyatli yoshlar yetishib chiqishiga ishonaman.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-sonli qarori

2.Xalq ta'limi ilmiy metodik jurnali 4/2013. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun chet tillari o'quv dasturlari.

3. H. Rasulov "Ingliz tili darslarida qiziqarli o'yinlar" 23-yanvar,2018yil,hasanboy.uz sayti

4. Active learning and teaching of foreign languages in Uzbekistan, Volume 2,2017,12-14,23-24.

5. N.Qurbonaliyeva . “Boshlang`ich sinflarda ingliz tili o`qitishning innovatsion usullari”. Scientific progress 2021.

6. Mahoratli pedagog – Ta`lim- tarbiya yo`nalishidagi ma`naviy-ma`rifiy, ilmiy metodik nashr, 2021-yil, aprel, 11-18-19.

7. Mahoratli pedagog –Ta`lim- tarbiya yo`nalishidagi ma`naviy-ma`rifiy, ilmiy metodik nashr, 2021-yil ,fevral,27.

PIRIMQUL QODIROVNING ADABIY-FALSAFIY QARASHLARIDA IJODKOR ESTETIK KONSEPSIYASINING AKS ETISHI

*Sattorzoda Xurshidabonu Sobir qizi,
Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti*

Adabiyotshunoslikda ijodkor estetik konsepsiyasini tadqiq etishda turli yondashuvlarga guvoh bo`lamiz. Ijodkor asari uning ichki “men”ini ko`rsatishi bilan bir qatorda, uning estetik kredosini ochib berishda asosiy obyekt bo`lib xizmat qiladi. Pirimqul Qodirov ijodini kuzatish davomida uning uslubida ijtimoiy tendensiyalar ustunligiga amin bo`lamiz. Zamonaviy ruhdagi asarlari yoki tarixiy asarlarida ham bosh g`oya ijtimoiy ahamiyatga ega bo`ladi. Tanlangan bosh qahramonlar ham jamiyat uchun ma`lum bir vazifani bajarishda burchli bo`ladi. Adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov aytganidek, “Pirimqul o`z asarlarida hayot haqida, «inson» degan oliy tushunchaning asl mohiyati to`g`risida jiddiy mulohazalar yuritadi va o`quvchini ham o`ylashga, fikrlashga undaydi. Pirimqul asarlarini yoqtirish yoki yoqtirmaslik mumkin, ammo ularda ko`tarilgan problemalarga befarq, loqayd munosabatda bo`lish qiyin.”³⁴² Shunday tasvir uslubi uning estetik qarashlarida ham aks etadi. Adabiy- estetik qarashlarida ham jamiyat hayoti uchun dolzarb bo`lgan ijtimoiy jihatlarining yuqori ekaniga guvoh bo`lamiz.

Ijodkor estetik qarashlarida adabiy bilimlardan tashqari falsafiy bilimlar, qolaversa, ma`naviyat va milliy ruh, ustozlar va qadriyatlarga hurmat va yuksak vatanparvarlik ruhi ufurib turganini payqash mumkin. Uning “Qalb ko`zlari” badiasidan o`rin olgan “Nur to`la ummon” va “Falsafiy lavhalar” bobida ijodkorning borliq haqidagi falsafiy mushohadalari va estetik kredosini anglash mushkul emas. Xususan, “Nur to`la ummon” bobidan o`rin olgan “Dildan dilga yo`l bor”, “Ma`naviyatimiz istiqboli”, “Haqiqat quyoshi”, “Xotira kuchi”, badialarida yozuvchi **ma`naviyat, haqiqat, xotira, istiqlol** kabi tushunchalarga yondashuvda *ramzlardan* foydalanganiga guvoh bo`lamiz. Adib bu tushunchalarni *ramzlarga* asoslanib nihoyatda mohirona tarzda ta`riflaydi. Uning ichki “men”i va estetik kredosi ham shu qiyoslarda ochilgandek bo`ladi

Adibning fikricha, tashqi dunyoni poklaydigan eng zo`r ma`naviy va ma`rifiy kuchlar avvalo insonning qalbida bo`ladi. Tafakkurida harakatni boshlaydi. Farovon hayotga intilar ekanmiz, aslida shu hayotning imkon manbaalari qalbimizda, ruhiy

³⁴² O.Sharafiddinov, “Adabiy etyudlar” (Adabiy-tanqidiy maqolalar) Tosh.- 1968-yil, 10-bet

Mahmudqo'ziyeva N., Xayrulla H. Qo'chqor norqobilning so'z tanlash mahorati.....	835
Mamatova Z. Sotsiolingvistika.....	838
Mamutova Yu.R. The significance of authentic texts in teaching foreign languages.....	842
Nazarova N., Ne'matjonova N. Erkin vohidov she'rlarida tinish belgilarining qo'llanilishi.....	845
Nurmatova S., Xolbekova B. Linguistic problems in translation of medical texts.....	848
Nizomova B. Using steam-education technology in the improvement of the biology teaching process on the basis of the integration of natural sciences.....	851
Olimova G. Xorazm "oshiq" turkumi dostonlari hamda "kitobida qo'rqut" eposidagi motivlarning qiyosiy o'rganilishi.....	853
Омонов Р. Масс медиада тил ва услуб масаласи.....	858
Отарова Т. Образность в пейзажной лирике (на примере творчества А.Ажиниязова и Т.Сарсенбаева).....	863
Ochilova M. Milliy taraqqiyotda sifatli ta'limning o'rni.....	866
Pardayeva R. Tilshunoslik va tabiiy fanlar integratsiyas.....	870
Rajavaliyev B. "Devoni hikmat"da qo'llangan badiiy tasvir vositalari.....	874
Ruxillayeva N. Alisher navoiy ruboiylari misolida badiiy matnlarning o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasini muammolari.....	878
Ochilova M. Boshlang'ich sinflarda ingliz tili fanini o'qitishning samarali usullari.....	881
Sattorzoda X. Pirimqul qodirovning adabiy-falsafiy qarashlarida ijodkor estetik konsepsiyasining aks etishi.....	884
Saydaliyeva M. Stilistikga oid tarmoqlar masalalari.....	887
Sodiqova M. O'zbek va ingliz tilidagi maqollarda qo'shma gaplarning ishlatilishi.....	891
Sayfiddinova G. O'zbek tilidagi so'zlarni semantik jihatdan darajalash va uning bugungi kundagi ahamiyati.....	893
Serdaliev B. Fostering intercultural communication and speech etiquette through english education in Karakalpakstan.....	898
Sodikova R., Tashkenbayev T. The literary legacy of maksud sheikhzade.....	900
Turg'unova I. Dunyo tillarining tasniflanish turlari va ularning vazifalari.....	903
Tkacheva A. Calla modeli yordamida ispan tilini o'rganayotgan otm talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentligini rivojlantirish.....	905
Usmonova M. Pahlavonquli ravnaq she'riyatida qo'llangan "shohbayt"lar.....	909
Utanova V. Ta'lim bosqichlarida ona tili darslarini integratsiyalab o'qitishning bugungi holati.....	911
Усманов Ф. Ассоциативный анализ ценности оила – семья на фоне русского языка.....	915
Shoabdullayeva Z. Nizomiy Ganjaviy Alisher Navoiy-shoirlarimizning ilhom manbai adabiyotimizning uyg'onish davri, turkiy olam adabiyotining zirvasi.....	920

“SIFATLI TA’LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI”

**mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy
konferensiya to`plami**

2024-yil 10-may

Konferensiyaning telegramdagi rasmiy kanali

https://t.me/STTP_UZ